

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida

UDK: UDK:338.2:334.722.012.61-022.51(575.146)

BOZOROV ILYOS ISOMIDDINOVICH

KISHIK VA O‘RTA BIZNESNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

08.00.15 – “Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti”

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (RhD) ilmiy darajasini olish
uchun
DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar: (PhD), dots.
Xo‘jaev Fazliddin Elmurotovich**

Toshkent - 2025

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1-BOB. KICHIK VA O‘RTA BIZNES FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING ILMIY- NAZARIY ASOSLARI.....	15
1.1-§. Kichik va o‘rta biznes faoliyatini tashkil etishning ilmiy-nazariy jihatlar.....	15
1.2-§. Respublikamizda kichik va o‘rta biznes faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslari.....	27
1.3-§. Kichik va o‘rta biznes sub’ektlari faoliyatini tashkil etish va boshqarishning jahon tajribasi hamda uni respublikamizda qo‘llash.....	35
Birinch bob bo‘yicha xulosa.	
2-BOB. BUXORO VILOYATIDA KICHIK VA O‘RTA BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNI HOZIRGI HOLATI HAMDA UNING IQTISODIY TAHLILI.....	56
2.1-§. Buxoro viloyatida kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish holatini ekonometrik modellashtirish.....	56
2.2-§. Kichik va o‘rta biznes sub’ektlariga beriladigan iqtisodiy imtiyozlar va uni yanada takomillashtirish.....	72
2.3-§. Buxoro viloyatida kichik va o‘rta biznes faoliyatini rivojlantirishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari.....	93
Ikkinshi bob bo‘yicha xulosa.	
3-BOB BUXORO VILOYATI IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA KICHIK VA O‘RTA BIZNESNING O‘RNI.....	102
3.1-§. Hududda kichik va o‘rta biznes faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning afzalliklari.....	102
3.2-§ Buxoro viloyatida aholi daromadini oshirishda kichik va o‘rta biznesni o‘rni va uning istiqbollari.....	118
Uchinchi bob bo‘yicha xulosa.....	132
XULOSA.....	133
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	134
ILOVALAR.....	135

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va ahamiyati. Bugungi kunda dunyo mamlakatlarining iqtisodiy taraqqiyotini tahlil qilsak, ularning bosh maqsadi aholining moliyaviy holatini yaxshilash, hayot sifatini oshirish va farovonlikni ta'minlashdan iborat ekanini ko'ramiz. Jumladan, mamlakatimizda ham aholi daromadini oshirish va ularning turmush darajasini yaxshilash, dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki, bu jarayonni amalga oshirishda kichik va o'rta biznesning ahamiyati nihoyatda beqiyosdir. Bunday natijalarga olib kelayotgan asosiy omillardan biri — bu bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik va o'rta biznesni rivojlantirish borasida hukumat tomonidan kuchli rag'bat va e'tibor berilayotganidir. Yana bir ijobiy jihat shundaki, so'nggi yillarda kichik va o'rta biznes subyektlari faoliyatiga davlat aralashuvi sezilarli darajada kamaymoqda. Buning natijasida mamlakatimizda faoliyat olib borilayotgan kichik va o'rta biznes sub'ektlarining YaIM dagi ulushi qariyb 60 foizini tashkil etadi. Mamlakatimiz milliy iqtisodiyotini rivojlanishida bugungi kunda kichik va o'rta biznes sub'yektlari munosib hissa qo'shib kelishmoqda.

Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, kichik va o'rta biznesning taraqqiy etishi nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi, balki mamlakatlarda olib borilayotgan islohotlar jarayonida ham muhim rol o'ynaydi. Ushbu sohaning rivojlanishi jamiyatda o'rta qatlam ulushining ortishiga xizmat qilib, ijtimoiy, iqtisodiy hamda siyosiy barqarorlikka erishishda asosiy omil sifatida e'tirof etiladi. Yaponiyadan tortib AQSH va Yevropaning yetakchi davlatlarigacha – xususan Xitoy, Italiya, Frantsiya va Germaniyada kichik va o'rta biznes iqtisodiy taraqqiyotning tayanch ustuniga aylangan. Xorij mamlakatlarida kichik va o'rta biznes bilan shug'ullanuvchi mavjud korxonalar salkam 92 foizni tashkil e'tadi. Rivojlangan mamlakatlarda yaratilayotgan YaIM ning salkam 65-75 foizi xususiy tadbirkorlik faoliyatiga to'g'ri keladi. Faoliyat olib borayotgan korxonalar xalqaro darajada taraqqiy etgan mamlakatlar iqtisodiyotining asosiy qismini tashkil etadi. Bu barqaror rivojlanishni motivatsiya qilishda tadbirkorlik bilan qiziquvchi barcha aholi qatlami, jumladan: yosh tadbirkorlar, kam ta'minlangan aholi guruhlari va ayollar o'zlarining asosiy hissalarini qo'shib kelmoqdalar.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti 2023 yilda 6 foizga o'sgan. Xususan, sanoat tarmog'ining o'sishi 6 foizni tashkil etib, YaIM o'sishiga qo'shgan hissasi 1,5 foizga, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining o'sishi 4,1 foizni tashkil etib, YaIM o'sishiga qo'shgan hissasi 1 foizga, xizmat ko'rsatish sohasining o'sishi 6,8 foizni tashkil etib, YaIM o'sishiga qo'shgan hissasi 2,6 foizga baholangan. Shuningdek, qurilish sohasi 6,4 foizga oshgan bo'lsa, tadbirkorlik sub'ektlaridan undirilgan soliqlar miqdori 7,4 foizga o'sgan. O'tgan 2023 yilda Respublikamiz iste'mol sektorida inflyatsiya darajasi 8,8 foizni tashkil etgan. O'zbekistonda inson manfaatlarini ro'yobga chiqarish, uning ehtiyojlarini yuksak darajada qondirish, imkoniyatlaridan to'liq foydalanishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratilishi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlarga qaratilgan. Shunga ko'ra, bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishlarda belgilanayotgan chora-tadbirlar aholi farovonligini yanada oshirishga imkon yaratmoqda. Bugungi kunda iqtisodiyot dunyo miqyosida shiddat bilan rivojlanmoqda, buning qobig'ida esa turli xil jarayonlar, mamlakatlar tomonidan yuqori natija sari qiyinchiliklar asosida rivojlanishlar va ularning negizida taraqqiyot sari bosib o'tiladigan yo'llar hamda shu kabi boshqa jarayonlarda inson omili, uning sa'y harakatlari natijasida bir qancha yutuqlarga erishib kelinmoqda. Bu yutuqlar natijasida shak-shubhasiz inson omili katta ta'sir darajasiga egadir. Bu jarayonni tahlil qilganimizda ayrim holatlarda kichik va o'rta biznes ko'rinishida faoliyatlarni yuzaga kelganini anglasak-da, ayrim holatlarda esa buning aksi, ya'ni, yiriklashgan ko'rinishga ega bo'layotganini guvohi bo'lamiz. Bu hatti-harakatlar jarayonlar bilan uzviy bog'liq bo'ladigan islohotlarning amalga oshirilishi, bir so'z bilan aytganda mamlakatning rivojlanish taraqqiyotiga qaratilgan. Aholi farovonligiga ta'sir ko'rsatuvchi ko'plab omillar qatorida iqtisodiyotni etakchi tarmoqlarining rivojlantirilishi, ulardagi iqtisodiy salohiyatdan to'liq va samarali foydalanish muhim o'rin tutadi. Aholining farovonlik darajasi, avvalo, ularning daromad miqdori, bu daromadlar orqali zarur ehtiyojlarni qondirish imkoniyati, mehnat sharoitlari va xususiyatlari, ish va bo'sh vaqt balansiga rioya qilinishi, yashash joyining holati va narxi, shuningdek, aholining turli turdagi xizmatlar bilan ta'minlanganligi orqali aniqlanadi.

Shunga ko‘ra, aholi farovonligi darajasi, uning manbalari va tarkibiy tuzilishi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosini tashkil etadi. Uni takomillashtirib borishga doimiy zarurat mavjudligi kabi holatlar ushbu jarayonning nazariy jihatlarini tadqiq etishga qaratilgan. Tadqiqot ishlari muntazam tarzda olib borilishini va uning rivojlanishini ta‘minlovchi ilmiy asoslangan yangi yo‘nalishlarni yaratilishini taqozo etib, mazkur tadqiqot ishining mavzusi dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi¹. Mamlakatimiz Prezidenti muhtaram Sh.M.Mirziyoev tashabbusi bilan 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 son “2022-2026 yilda ishlab shiqilgan yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2021 yil 15 sentyabrdagi PF-6314-son “Tadbirkor sub’ektlari uchun ma‘muriy va soliq yukini yanada kamaytirish, biznesning qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning “O‘zbekiston ijtimoiy huquqiy, suveren demokratik jamiyatni ma‘naviy-ahloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishlarga muvofiq amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Kichik va o‘rta biznes salohiyatini oshirish bo‘yicha ko‘plab xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan kichik va o‘rta biznesning mazmun mohiyatini, yanada rivojlantirishda ta‘sir etuvchi omillar, kichik biznes sub’ektlarining iqtisodiyotdagi o‘rni hamda ahamiyati to‘g‘risida izlanishlar, ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, R.Xizrich va M.Piterslar tadbirkorlik to‘g‘risida quyidagicha fikr bildirib o‘tishgan. Ularning fikriga ko‘ra, tadbirkorlik - bu qiymatga ega bo‘lgan yangilik yaratish jarayoni bo‘lib, vaqt va ishchi kuchini o‘zlashtiradi, o‘ziga moliyaviy, ma‘naviy-ijtimoiy javobgarlikni qabul qilishga, shaxsiy manfaatni qanoatlantirishga va ma‘lum darajada daromad olishga olib keladi

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida 2022 yil 28 yanvar, PF-60-son. – www.lex.uz

deya ta'riflaydilar. Y.Shumpeter fikricha, "iqtisodiy o'sishning negizida tadbirkorni ishlab shiqarish omillarini yangi kombinatsiyasini ishlatishga, qo'llashga bo'lgan intilishi yotadi va bu intilishning natijasi innovatsiya, yangiliklar hisoblanadi", deya ta'kidlaydi. Rus iqtisodshi olimlaridan F.I.Shaxmalovning fikricha "Tadbirkorlik mustaqil iqtisodiy faoliyat sifatida investitsiya va xavf-xatar bilan bog'liq bo'lib, foyda yoki boshqa qo'shimcha daromad olishdir" deb ta'riflasi, Y.S.Muxin esa "Tadbirkorlik iqtisodiy taraqqiyot omillaridan biridir, fuqarolarni yoki xo'jalik yurituvchi turli mulkchilik shakliga asoslangan tarkiblarning mustaqil faoliyatidir" deb hisoblaydi.

S.S. G'ulomovning "Tadbirkorlik va kichik biznes" darsligida kichik biznesning iqtisodiy o'sishga bevosita ta'siri to'g'risida aniq fikrlar berilmagan, biroq unga yaqin mazmundagi mulohazalar keltirilgan. Qo'llanmada kichik va o'rta biznesning rivojlanish yo'nalishlari, uning iqtisodiyotdagi ahamiyati, eksport salohiyatini oshirish, bandlikni ta'minlash va moliyalashtirish masalalari, shuningdek oilaviy tadbirkorlik bo'yicha tadqiqotlarga keng o'rin berilgan. Q.X.Abduraxmanov., N.M.Maxmudov, Yo.O.Abdullaev, F.Karimov, M.R.Boltabaev, D.S.Qosimova, Sh.J.Ergashxodjaeva, B.K.G'oyibnazarov, A.N.Samadov, R.Xodjaev, H.R.Abulqosimov, A.A.Qulmatov, G.Q.Abduraxmonova, T.Z.Teshabaev, U.S.Mehmonov, S.Sh.To'rabekov, M.M. Muxammedov.² kabi iqtisodchilarning mulohazalariga ko'ra "Kichik va o'rta biznes va uni amalga oshirishda asosan bir qancha omillar muhim rol o'ynaydi. Bular: qonuniy jihatdan faoliyat olib borish; ichki va tashqi siyosiy muhitni hisobga olish; mamlakatning ijtimoiy holatini o'rganish; iqtisodiy jihatdan tashqi va ichki omillarni hisobga olish hamda ularning bir-birlari bilan uzviy bog'liqligini ta'minlash muhim omil hisoblanadi. U.V.Gafurovning doktorlik dissertatsiyasida kichik biznes va tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish, ishbilarmonlik muhitini kengaytirishga doir masalalarga e'tibor qaratilgan. Bizning ilmiy ishimizda Buxoro viloyatining iqtisodiy o'sishini ta'minlashda aholi daromadlarini oshirish, davlat imtiyozlaridan

Abdullaev Yo., Karimov F. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. – T.: Mehnat, 2010. — 349 b.; Boltabaev M.R., Qosimova D.S., Ergashxodjaeva Sh.J., G'oyibnazarov B.K., Samadov A.N., Xodjaev R. Kichik biznes va tadbirkorlik: O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2010. – 275 b.; Abulqosimov H.P., Qulmatov A.A. O'zbekistonda kichik biznes sohasida oilaviy tadbirkorlikning o'rni va uni rivojlantirish yo'llari. Monografiya. – T.: Universitet, 2015. – 126 b.; To'rabekov S.Sh., Muxammedov M.M. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining eksport salohiyatini rivojlantirish istiqbollari. // Iqtisod va moliya. 2016, №2. 33-38-b.; Abduraxmonova G.K. Kichik biznesda aholini munosib mehnat tamoyillari asosida ish bilan ta'minlashni takomillashtirish. dis. i.f.d. – T. 2016.; Murodova N.K. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning nazariy asoslarini takomillashtirish: dis. i.f.d. – T. 2016.; Yuldashev D.T. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish: dis i.f. bo'yicha falsafa doktori (PhD). – T., 2019.